Korreksion pedagogika: ilmiy-metodik asoslar va ta'lim sifatiga ta'sir mexanizmlari.....	1843
<i>Mirzakobilov Askarali Davronovich</i>	
Talabalarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishning innovatsion pedagogik texnologiyalari	1846
<i>Xurramova Sanobar Mahmatmurod qizi</i>	
O'smirlik davrida axloqiy o'zini o'zi anglashni ijtimoiy psixologik xususiyatlari	1851
<i>Galdiyeva Mehribon Durdiyevna</i>	
Bolalar bog'langan nutqni rivojlantirishda badiiy adabiyotlarning muhim o'rni	1855
<i>Abidova N. Z., Karimova Z. A.</i>	
The Emergence of Speech Competence and its Role in 21St Century Competencies	1859
<i>Rajabova Munishxon Rajab qizi</i>	
Innovatsion ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq madaniyatini shakllantirish metodikasini takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlari (ona tili fani misolida).....	1863
<i>Norboyeva Farangiz Alisher qizi</i>	
Global raqamli qaramlik (telefon, internet, ijtimoiy tarmoq)ning talabalarning ruhiy holatiga ta'siri	1868
<i>Babayeva Nazira Asatullayevna</i>	
O'smirlar o'rtasida o'zaro hamkorlik shakllanishida shaxslararo munosabatlarning ahamiyati	1872
<i>Majidov Jasur Baxtiyarovich</i>	
Yosh futbolchilarda stress va asabiylikni boshqarish.....	1877
<i>O.T. Baxromov</i>	
Структура и содержание когнитивных компетенций в профессиональной подготовке педагога.....	1880
<i>Karimova Farida Nail'evna</i>	
Bo'lajak mutaxassislarning kasbiy ko'nikma va malakalarini shakllantirishda milliy qadriyatlardan foydalanish.....	1884
<i>Muqimov Ma'ruf Olimovich</i>	
Biologiya darslarida innovatsion interfaol metodlar: STEM, CLIL, Flipped Classroom va PBL yondashuvlarini joriy etish mexanizmlari	1887
<i>Kozimov Akbarjon A'zamjon o'g'li</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini integrativ yondashuv asosida rivojlantirish	1892
<i>Ibrohimova Nilufar Qobil qizi</i>	
Творческое наследие Тагай Мурада: его рассказы в оригинале и в переводе	1897
<i>Меликулова Нилуфар Хамдуллаевна</i>	
Gender Equality: an Important Prospect for the Development of a New Uzbekistan.....	1902
<i>Khamidova Sitorakhan Mukhammadjonovna</i>	
Gandbolchilarning jismoniy sifatlarini harakatli o'yinlar orqali rivojlantirish.....	1906
<i>Lutpullayev Bunyod Ismatilayevich</i>	
Abu Mansur al-Moturidiyning bilimning "Muvofiqlik nazariyasi"	1909
<i>Qurbonova Zebiniso Mamarajab qizi</i>	
Professor-o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarning rivojlantirishda kompetensiyaviy yondashuvning afzalliklari.....	1914
<i>X. N. Agaliyeva</i>	
Maktabgacha ta'limda bolalarning hissiy-ma'naviy rivojlanishida didaktik o'yinlarning ahamiyati	1920
<i>Urinbayeva Barchinoy Zafarjanovna</i>	
Yoshlarni milliy musiqa san'ati va an'anaviy xonandalikka bo'lgan munosabatini tarbiyalash	1924
<i>Qurbonova Shoxisanam Axmadjonovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tabiiy fanlar mavzularini o'rganishdagi klaster yondashuvlari	1930
<i>Umarova Nafisa Ahmatillovna</i>	
11–15 yoshli suzuvchilarning mashg'ulot yuklamalarini rejalashtirish xususiyatlari	1934
<i>Hasanov Anvar Toxirovich, Asqarova Zaynura</i>	
Yosh voleybolchilarning jismoniy rivojlanishini o'rganish.....	1937
<i>Sultonov Baxtiyor Abdumurodovich, Hasanov Anvar Toxirovich</i>	



Школьные трудности в обучении и педагогическое диагностирование	1940
<i>Урумбаева Айгуль Нагметовна</i>	
Erkin kurashchilarda maxsus jismoniy tayyorgarlikni rivojlantirishda funksional kuch mashqlarining samaradorligi.....	1943
<i>Meliqo'ziyev Azizjon Adxamjon o'g'li</i>	
Употребление падежных окончаний на уроках русского языка	1947
<i>Адилова Солияхон</i>	
STEAM va raqamli ta'lim texnologiyalari asosida alfa avlod o'quvchilarida kreativ tafakkurni shakllantirishning pedagogik asoslari.....	1951
<i>Boltayeva Go'zal Komilovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida olib boriladigan mashg'ulotlarda zamonaviy ta'lim texnologiyalariga qo'yiladigan didaktik talablar	1954
<i>Mansurova Lobar Luqmon qizi</i>	
Translation Techniques as an Integral Part of Foreign Language Teaching and Learning: Benefits and Potential Issues	1958
<i>Yusupova Nargiza Abdulxafizovna</i>	
Nogironligi bo'lgan bolalarda adaptiv jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining sog'liqni saqlashdagi o'rni.....	1967
<i>Namozova Nargiza Husniddin qizi</i>	
The Importance of the Theoretical Basis in Educating Preschool Children in the Spirit of National Education Within the Family.....	1971
<i>Rakhmonova Diyora Utkir's daughter</i>	
Kurash mashg'ulotlarida sportchilarning funksional tayyorgarligini oshirishda individual yondashuvning ilmiy asoslari.....	1976
<i>Nurullayev Abduxoliq Qaxxorovich</i>	
Voleybol mashg'ulotlarida funksional tayyorgarlikni oshirishda individual yondashuvning ilmiy asoslari ...	1980
<i>Davulov Ozodbek Qalandarovich</i>	
18–21 yoshdagi talaba futbolchilarni kompleks tayyorlashning nazariy va uslubiy jihatlari.....	1984
<i>Djemilov Temur Rasimovich</i>	
Oilaviy nizolarning bolalar psixikasiga ta'siri.....	1989
<i>Tulyaganova Dilnoza Ravshanbekovna</i>	
Boshlang'ich maktab yoshidagi (6–8 yosh) chap qo'li dominant bo'lgan bolalarning psixologik rivojlanishi va xususiyatlari	1993
<i>Usmanova Sevara Akmalovna</i>	
Matematika fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalar orqali darsni qiziqarli va samarali qilish usullari ...	1996
<i>Abdullayev G'ayratjon Mutalipovich</i>	
Entropiya o'lchovlarining nazariy asoslari: Shannon, Reyni va Tsallis entropiyasi taqqoslamasi.....	2001
<i>Ovxunov Iqboljon Abdunabiyevich, Abdurashidov Saydullo Xayrullo o'g'li</i>	
Sun'iy intellekt vositalari asosida kiberijtimoiylashuv samaradorligini oshirishning pedagogik sharoitlari va monitoring mexanizmlari.....	2007
<i>Istamova Dilnoza Norboyevna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida kompetensiyaviy yondashuvga tayanib ta'lim mazmunini boshqarish	2012
<i>Turaxujayeva Madina Norpulatovna</i>	
Para armrestlingchi talabalarni musobaqa oldi texnik tayyorgarligini takomillashtirishda kuch sifatining o'rni.....	2015
<i>Karimov Faxriddin Xurramovich</i>	
Yengil atletika sportchilarida yadro itqitish harakati biomexanik ko'rsatkichlarining texnik samaradorlikka ta'siri	2019
<i>Djabbarov Axror Islomovich</i>	
Tinchlik madaniyati konsepsiyasining evolyusiyasi: klassik va zamonaviy falsafa	2023
<i>Abdumalikov Ilimjon Abduxamjonovich</i>	
Talabalarning muammoga asoslangan topshiriqlar orqali kognitiv mustaqilligini rivojlantirish: mohiyat va mazmun	2028
<i>Abduvaliyev Nurillo Abdujalilovich</i>	
Oliy ta'lim muassasasi pedagoglari innovatsion faoliyatining ijtimoiy psixologik xususiyatlari	2032
<i>Almardanova Salomat Bobonazarovna</i>	
Kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish zarurati	2035
<i>Ashirov Abdurashid Ravshanovich</i>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	<p>Pedagogik ta'lim klasteri tizimi asosida maktab laboratoriya innovatsion loyihagini amalga oshirishning o'ziga xosligi2040 Azimova Odinaxon Abduqodir qizi</p> <p>Talabalarda algoritmik kompetentlikni rivojlantirishning sun'iy intellekt va Big Data Analytics asosida o'quv faoliyatini real vaqt rejimida kuzatuvchi va boshqaruvchi konseptual modelni takomillashtirish.....2043 Kayumova Nazokat Rashitovna</p> <p>Uzluksiz ta'lim tizimida texnologiya fanini o'qitish samaradorligini oshirishning metodik asoslari2049 Kurbanov Baxrom</p> <p>Ingliz tilida o'qitish vositasi sifatida monoglardan foydalanishning muvaffaqiyatli strategiyalari2053 Madaminova Nilufar Madrasulovna</p> <p>Raqamli texnologiyalar davrida o'quvchilarning psixologik xavfsizligini ta'minlash muammolari2056 Mahmudov Dilmurod Rahmatjonovich</p> <p>Gamifikatsiya va STEAM texnologiyalarini joriy etish orqali boshlang'ich ta'limda inklyuziya va teng imkoniyatlarni ta'minlash2059 Mamadjanova Diloromxon Baxtiyor qizi</p> <p>Talabalarining tadqiqot faoliyatini rivojlantirishda raqamli kompetensiyalarning roli.....2064 Mamarasulova Zulayho Abdullayevna, Toshmatov Sardorbek Shahobiddinovich</p> <p>Maktab yoshidagi o'quvchilarda suzish mashg'ulotlari orqali jismoniy rivojlanish va funksional tayyorgarlik ko'rsatkichlarini oshirish metodikasi.....2067 Mengliqulov Xayrullo Aliqulovich</p> <p>O'quv jarayonida "Data Science" elementlarini integratsiyalashning didaktik imkoniyatlari2072 Mo'minova Dilnavoz Komilovna</p> <p>Muloqot kompetensiyasining pedagogik-psixologik mazmuni va rivojlanish omillari.....2077 Narbayeva Malohat Xudayberdiyevna</p> <p>O'g'il va qiz bolalarda gender tasavvurlarning shakllanishida ota-onaning liderlik maqomining roli.....2080 Ogina Otajonova</p> <p>Yarimo'tkazgichlar fizikasi fanini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning ilmiy asoslari2084 Oromiddinov Sardorbek Botirovich</p> <p>Yangi O'zbekistonda ta'limni rivojlantirishda media vositalardan foydalanish metodlari2089 Qobilov Vohidjon Asliddin o'g'li</p> <p>Inklyuziv ta'limda pedagoglarni tayyorlashning zamonaviy tendensiyalari va innovatsion yondashuvlar ...2092 Qodirova Feruza Usmanovna</p> <p>Maktabgacha ta'lim muassasalarida o'yinli texnologiyalardan unumli foydalanishning roli.....2095 Sobirova Bonu Matkarimovna</p> <p>Kichik yoshli bolalarning olamni idrok etishlarida oila tarbiyasining ahamiyati2099 Sobirova Fotimaxon Baxodir qizi, G'aniyeva Shodiya Azizovna</p> <p>Talabalarining tadqiqot faoliyatini rivojlantirishda raqamli kompetensiyalarning roli.....2102 Mamarasulova Zulayho Abdullayevna, Toshmatov Sardorbek Shahobiddinovich</p> <p>Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishning didaktik tizimi2105 Ulug'berdiyeva Dilbar Qarshibekovna</p> <p>Kurashchi qizlarning texnik harakatlarining kinematik va kinetik modellashtirish2109 Xomudjonova Feruza Komiljon qizi</p> <p>Lingvokulturologiya va kommunikativ yondashuv integratsiyasi asosida talabalarda ijtimoiy kompetensiyani rivojlantirish.....2114 Y. T. Umarova</p> <p>Bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik faoliyatda kasbiy barqarorligini ta'minlovchi psixologik omillar2118 Yakubova Manzura Abduraxmonovna</p> <p>Integratsiyalashgan darslar orqali talabalarining kreativ salohiyatini rivojlantirish2121 Yaxyayeva Umida Sharifovna</p> <p>Tibbiyot oliy ta'limida "O'zbekiston tarixi" fanining amaliy komponentini kuchaytirish: klinik-ijtimoiy kontekst orqali o'qitish modeli2125 Yulchiyeva Gulnozaxon Shuxratbek qizi</p> <p>Radiatsion fonning inson hayot faoliyatiga ta'siri mavzusini o'rganishning pedagogik ahamiyati2130 Sodiqov Murod Naimovich</p> <p>Talabalarining jismoniy tayyorgarligini oshirishda zamonaviy jismoniy tarbiya metodlarining samaradorligi2134 Tashpulatov Farxad Alisherovich</p>
-------------------------------	---



“Arba’in” asarida qit’alarning vazniy xususiyatlari.....	2140
Eshniyazova Maysara Beknazarovna	
Guruhiy loyihalar orqali bolalarda hamkorlik va muloqot ko’nikmalarini tarbiyalash.....	2145
Negmatova Sanobar Qarshiboyevna	
Sport takomillashuv gurugidagi futbolchilarni o’yinga yo’naltirilgan mashg’ulotlar orqali musobaqaga tayyorgarlikni takomillashtirish	2149
Mamatraimov Anvar Chorshanbiyevich	
Oliy ta’lim raqobatbardoshligining ta’lim sifatini oshirishdagi roli	2155
Nishonov Dilshod Shamsidinovich	
Sharq donoligi va zamonaviy ta’lim uyg’unligi	2162
Djurakulova Adolat Xolmuratovna	
The Role of Artificial Intelligence in Teaching English as a Foreign Language	2165
Babayeva Komila Rishatovna	
Zaif eshituvchi bolalarga tasviriy san’atni o’rgatishning metodik asoslari (miniatyura misolida).....	2169
Buharbayev Muxtar Yusupovich	
Bo’lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarining axloqiy va estetik madaniyatini takomillashtirish: maxsus yondashuvlar	2172
Do’schanova Nafosat Norimonovna	
Boshlang’ich sinf o’quvchilarida tanqidiy fikirlashni rivojlantirish texnologiyalari	2176
Fayzullayeva Feruza Raxmatovna	
Bo’lajak o’qituvchilarda kommunikativ madaniyatni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari	2179
Izbosarova Zuxro Anatoliy qizi	
Dialekt va adabiy til: o’zaro munosabat.....	2183
Jumanazarova Guljahon	
Maktabgacha ta’lim yo’nalishi talabalariga kommunikativ kompetensiyalarni o’rgatishda interaktiv ta’lim texnologiyalar.....	2187
Kimsanboyeva Ruxsoraxon Ziyodbek qizi	
Pedagogik nizolarni hal etishda bo’lajak o’qituvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari	2190
Norjon Jamilova Abduxoliq qizi	
Abu Nasr Farobiy asarlari asosida talabalarni boshqaruv madaniyatini rivojlantirish.....	2194
Shamsiyeva M. R.	
O’smirlarda affiliatsiya motivini shakllantirishning pedagogik-psixologik determinantlari	2196
Tojiboyeva Gulxumor Raxmanjanovna, Saidova Maftuna Xakim qizi	
Преподаватель - русист в современной национальной школе: личный опыт и методические находки	2200
Хамидова Гулноза Турсунбаевна (Турсунбой кизи)	



BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING TABIIY FANLAR MAVZULARINI O'RGANISHDAGI KLASTER YONDASHUVLARI

Umarova Nafisa Ahmatillovna

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalari tomonidan tabiiy fanlar mavzularini o'rganish jarayonida klaster yondashuvlaridan foydalanishning nazariy asoslari va amaliy ahamiyati yoritilgan. Tadqiqotda klaster metodining bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashdagi roli, ta'lim jarayonidagi samaradorligi hamda o'quv materiallarini tizimli o'zlashtirishga ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, klaster yondashuvining tabiiy fanlar mazmunini o'zlashtirishdagi imkoniyatlari, talabalarning mustaqil va ijodiy fikrlashini rivojlantirishdagi ahamiyati hamda amaliyotda qo'llashga oid uslubiy tavsiyalar bayon etiladi.

Kalit so'zlar: klaster yondashuvi, tabiiy fanlar, boshlang'ich ta'lim, bo'lajak o'qituvchi, ta'lim samaradorligi.

Abstract: This article examines the theoretical foundations and practical significance of using the cluster approach in the process of studying natural science topics by students majoring in primary education. The study analyzes the role of the cluster method in training future primary school teachers, its effectiveness in the educational process, and its impact on the systematic assimilation of learning materials. In addition, the article highlights the potential of the cluster approach in mastering natural science content, fostering students' independent and creative thinking, and provides methodological recommendations for its practical application.

Key words: cluster approach, natural sciences, primary education, future teacher, educational effectiveness.

Аннотация: В статье раскрываются теоретические основы и практическая значимость использования кластерного подхода в процессе изучения тем по естественным наукам студентами направления начального образования. Анализируется роль кластерного метода в подготовке будущих учителей начальных классов, его эффективность в образовательном процессе и влияние на системное усвоение учебного материала. Особое внимание уделяется возможностям применения кластерного подхода при изучении содержания естественных наук, развитию самостоятельного и творческого мышления студентов, а также приводятся методические рекомендации по его практическому использованию.

Ключевые слова: кластерный подход, естественные науки, начальное образование, будущий учитель, эффективность обучения.

KIRISH

Jamiyatning har jabhada tez sur'atlar bilan rivojlanishi ta'lim paradigmalarining o'zgarishiga, buning natijasida esa ta'lim tizimi, xususan, umumiy o'rta ta'lim maqsadlarining mazmun va miqdor jihatdan yangilanishiga olib kelmoqda. Zamonaviy jamiyat uchun har tomonlama rivojlangan, mantiqiy tafakkurga ega, intellektual salohiyatli, refleksiv-tahliliy va ijodiy-kreativ yondashuvni joriy eta oladigan, yuksak kasbiy kompetensiyaga ega shaxslar zarur. Bu talablarga javob beradigan maqsadlarga erishish uchun o'qitishning an'anaviy shakllari, "bilim berish", "o'quv materiali bo'yicha maksimal ma'lumot va axborot yetkazish"ga qaratilgan metodlar hamda texnologiyalar to'liq ma'noda yaroqsiz bo'lib qoldi [8].

Barcha umumta'lim fanlari o'rtasidagi integrativ bog'liqlikni ta'minlash orqali o'quvchining ta'limiy va shaxsiy sifatlarini yuzaga chiqarish, ilmiy dunyoqarashini shakllantirish, ijodiy-kreativ potensialini rivojlantirish kabi vazifalarning muvaffaqiyatli bajarilishi uchun mutaxassislar o'qitishning eng zamonaviy metodlari, yangi texnologiyalari, takomillashtirilgan metodikalari, shakl va vositalarini ishlab chiqmoqdalar. Shuningdek, umumta'lim maktablarida didaktik materiallar hamda innovatsion texnologiyalardan ta'limning yangi tamoyillari – xususan, o'n bir yillik ta'limning joriy etilishi, olti yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni bir yil davomida umumiy o'rta ta'limga tayyorlashning majburiyigi, davlat ta'lim standartlari va davlat ta'lim talablari doirasida ta'lim olishning



hamma uchun ochiqligi, o'quv dasturlarini tanlashga doir yondashuvning yagonaligi va tabaqalashtirilganligi, bilimlilik, qobiliyatlilik va iste'dodning rag'batlantirilishi, ta'lim faoliyati sohasidagi ochiqlik va shaffoflik, inson-parvarlik, erkinlik, sog'liqni saqlash, uzviylik va uzluksizlik kabi tamoyillarga amal qilingan holda foydalanilib, o'quvchi shaxsini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda ^[9].

Bu borada Yevropa va Amerika mamlakatlarida, shuningdek, O'zbekiston boshlang'ich ta'lim maktablarida "tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi" fanini jamiyatda shakllangan zamonaviy talablar darajasida o'qitish, shu orqali o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy, emotsional-psixologik va intellektual salohiyatini yanada rivojlantirish, o'qitishning innovatsion shakl, metod, usul va vositalarini joriy etish ta'lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Keyingi yillarda ilg'or umumta'lim maktablarida qo'llanila boshlangan klaster metodi ham yuqorida tilga olingan maqsadlarga erishishning samarali mexanizmlaridan biridir. Klaster metodining bir qator afzalliklari mavjud bo'lib, ushbu metoddan samarali foydalanish orqali o'quvchilarda ijodiy-kreativ fikrlash, tahlil qilish, umumlashtirish, mulohaza yuritish hamda masala yechimiga nostandart yondashish kabi muhim ta'limiy sifatlarni rivojlantirish mumkin.

Zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, mavzularni tizimli o'zlashtirishi va fanlararo bog'lanishni anglay olishi muhim ahamiyat kasb etadi ^[1]. Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlar (tabiatshunoslik) mavzularini o'rgatishda an'anaviy izoh berish metodlaridan tashqari innovatsion yondashuvlar, xususan, klaster metodi muhim o'rin tutadi. Boshlang'ich ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar ushbu metodni puxta o'zlashtirish orqali kelajakda dars jarayoniga uni samarali tatbiq etish imkoniyatiga ega bo'ladi ^[2].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish asosida davlatning ta'limni rivojlantirishga klasterli yondashuvi ijtimoiy sheriklik asosida amalga oshiriladigan klaster subyektlarining o'zaro va o'z-o'zini rivojlantirishi sifatida asoslanadi, bu esa alohida ishtirokchilarning hamda umuman klasterlarning o'ziga xos afzalliklarini oshiradi (Olimov Q. T.). Tadqiqotchilar O'rinboyeva M., Qodirova F. va Shodmonova Z. ta'lim klasterini ta'lim resurslarini tashkil etishning integrativ tizimi sifatida talqin qiladilar.

Ta'lim sifatini barqaror rivojlantirish manfaatlari doirasida litsey, universitet va ishlab chiqarishni integratsiyalash tizimini yaratish tajribasi V. L. Chudov hamda L. M. Perminova tomonidan umumlashtirilgan. Ta'lim klasterlari modellarining bir xil tipologik tavsiflari Joyce B. va Weil M. tomonidan taklif etilgan Models of Teaching asarida yoritilgan.

Ilmiy-ta'lim klasteri L. V. Ovsienko, I. V. Zimina va N. N. Klintsovalarning tadqiqotlarida ijtimoiy sheriklik doirasida, jumladan, universitetlar, korxonalar, o'rta kasb-hunar ta'limi tashkilotlari hamda umumta'lim maktablari o'rtasida tarmoq o'zaro hamkorlikni amalga oshirish uchun eng istiqbolli tuzilma sifatida ko'rib chiqiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda tabiiy fanlarni o'rgatish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarning samaradorligini aniqlash maqsadida kompleks ilmiy-uslubiy yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot ma'lumotlari pedagogik kuzatuv, tajriba-sinov mashg'ulotlari, suhbat va taqqoslash usullari orqali olindi. Tajriba jarayonida interfaol va klaster metodlari hamda raqamli vositalar qo'llangan darslar tashkil etilib, o'quvchilarning tabiatni anglash darajasi, tahliliy va ijodiy fikrlash faolligi muntazam kuzatildi.

Shuningdek, o'quvchilarning fikr-mulohazalari va dars jarayonidagi ishtiroki asosida sifat ko'rsatkichlari yig'ildi. Olingan ma'lumotlar tahliliy, taqqoslash va klaster metodlari yordamida qayta ishlanib, zamonaviy pedagogik texnologiyalar qo'llangan mashg'ulotlar natijalari an'anaviy darslar natijalari bilan solishtirildi. Tadqiqot natijalari tizimlashtirilib, umumlashtirish asosida ilmiy xulosalar chiqarildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Klaster yondashuvi nazariy jihatdan markaziy g'oyaga bog'liq bo'lgan fikrlar, tushunchalar va jarayonlarni grafik ko'rinishda tarmoqlantirib tasvirlash usuli sifatida talqin etiladi. "Klaster" atamasi inglizcha cluster so'zidan olingan bo'lib, "to'da", "uyum", "tarmoq" ma'nolarini anglatadi. Ushbu metod assotsiativ fikrlashni rivojlantiradi, g'oyalarni guruhlash va tizimlashtirishga o'rgatadi, murakkab biologik, kimyoviy va fizik jarayonlarni soddalashtirib ko'rsatishga imkon beradi hamda o'quvchilarni faol fikrlashga undaydi ^[3]. Klaster yondashuvi konstruktiv ta'lim nazariyasiga asoslanib, bunda bilim tayyor holda berilmaydi, balki o'quvchining uni mustaqil ravishda yaratishiga ko'maklashish ustuvor hisoblanadi ^[15-16].

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarga tabiiy fanlarni o'rgatish jarayoni ikki asosiy maqsadga yo'naltiriladi. Birinchidan, fan mazmunini o'zlashtirish, ya'ni tabiat hodisalari, tirik organizmlar, yer, suv, havo, energiya va ekologiya kabi tushunchalarni to'liq anglash nazarda tutiladi. Ikkinchidan esa, metodik ko'nikmalarni shakllantirish, ya'ni kelajakda o'qituvchi sifatida mazkur mavzularni boshlang'ich sinf o'quvchi-

lariga qanday samarali o'rgatish mumkinligini bilish muhim hisoblanadi ^[11, 13]. Klaster yondashuvi aynan ushbu ikki maqsadni birlashtiradi, chunki talaba bir vaqtning o'zida mavzuni chuqur o'rganadi, uni grafik tarzda tahlil qiladi va dars jarayoniga tatbiq etish usullarini o'zlashtiradi ^[4].

Tabiiy fanlar mavzularida klaster yondashuvidan foydalanish jarayonini tizimli va tushunarli tashkil etishga xizmat qiladi. Masalan, "Suvning aylanishi" mavzusida klasterning markaziga asosiy tushuncha joylashtirilib, bug'lanish, kondensatsiya, yog'ingarchilik, daryolarga qaytish, quyosh energiyasi va tabiatga ta'siri kabi jarayonlar tarmoqlar orqali ifodalanadi. Bu orqali talaba jarayonlarning ketma-ketligini aniq tasavvur qiladi va dars ssenariysini tuzish imkoniyati yengillashadi ^[10]. "O'simliklarning tuzilishi" mavzusida esa klasterning markazida o'simlik tushunchasi joylashtirilib, ildiz, poya, barg, gul, meva va urug' kabi qismlar vazifalari bilan birga yoritiladi. Ushbu klaster dars rejasida samarali ko'rgazmali vosita sifatida xizmat qilishi mumkin. "Yerning tuzilishi" mavzusida esa qobiq, mantiya, yadro, atmosfera, hayotning mavjudligi hamda Yerning harakatlari kabi tushunchalar o'zaro bog'liq holda klaster orqali ifodalanadi ^[5].

Klaster yondashuvi talabalar uchun muhim pedagogik ahamiyatga ega bo'lib, avvalo, u analitik fikrlashni rivojlantiradi, chunki talaba mavzuning ichki tuzilishini va bo'limlararo bog'lanishlarni mustaqil aniqlaydi. Bundan tashqari, ta'lim mazmunini tizimlashtirishga yordam berib, katta hajmdagi axborotni tarmoqlar shaklida tuzish orqali uni eslab qolishni yengillashtiradi. Klaster dars jarayonini loyihalashda qulay vosita bo'lib, u darsning tayyor sxemasi, tushuntirish chizmasi va ko'rgazmali materiali vazifasini bajaradi. Shuningdek, fanlararo integratsiyani kuchaytirib, masalan, "Suv" mavzusini fizika, geografiya va ekologiya fanlari bilan bog'lash imkonini beradi. Eng muhimi, klaster yondashuvi mustaqil ta'limni rag'batlantirib, talabaning izlanish orqali bilimni o'zlashtirishga xizmat qiladi ^[6].

Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitishda klaster metodining amaliy qo'llanishi aniq pedagogik ssenariy asosida tashkil etiladi. Dastlab mavzu tanlanib, markazga joylashtiriladi, so'ngra aqliy hujum usuli orqali talabalar fikrlari yig'iladi va ular xususiyatlari, vazifalari hamda jarayonlariga ko'ra guruhlanadi. Keyinchalik grafik klaster yaratiladi, asoslab tushuntiriladi va talabalar ushbu klaster asosida mini-dars ishlanmasini ishlab chiqadilar. Yakunida refleksiya va baholash amalga oshiriladi. Mazkur jarayon talabaning kelajakda darsni qanday loyihalashi va olib borishi lozimligi bo'yicha muhim amaliy ko'nikmalarni shakllantiradi ^[7].

Klaster yondashuvi boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalariga tabiiy fanlarni o'rganishda hamda ularni kelajakda o'quvchilarga o'rgatishda samarali vosita hisoblanadi. Ushbu metod murakkab jarayonlarni soddalashtiradi, tizimli fikrlashni shakllantiradi va darslarni ko'rgazmali hamda interfaol tashkil etishga xizmat qiladi. Talabalar klaster yordamida mavzular mazmunini chuqur anglaydi, fanlararo bog'lanishni tushunadi va amaliy dars olib borish malakasiga ega bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi sifatida faoliyat yuritishda zamonaviy maktabning asosiy tamoyili – har bir bolaning qobiliyatini ochib berish, jamiyatda kelajak hayotiga moslashgan, har tomonlama tafakkurli shaxsni tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang'ich maktabda innovatsion yondashuvni amalga oshirish ko'nikmalariga ega bo'lgan o'qituvchi o'quvchilarni muvaffaqiyatli qarorlar qabul qilishga undaydi, ularning faoliyatini tahlil qiladi va zarur tuzatishlar kiritadi ^[9].

Boshlang'ich maktablarda innovatsion yondashuvni joriy etish bo'yicha mavjud ish tajribasi shuni ko'rsatadiki, zamonaviy o'qituvchi uchun turli xil vositalar, texnologiyalar va o'qitish usullaridan iborat keng imkoniyatlar mavjud. Ushbu imkoniyatlardan dars jarayonida malakali foydalanish ta'lim sifatining oshishiga, o'quvchilarda bilim olishga bo'lgan motivatsiyaning rivojlanishiga hamda ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarda ishtirok etuvchilar sonining ortishiga xizmat qiladi. Innovatsion yondashuv o'qituvchi va o'quvchilarning ijodiy imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqarishga, boshlang'ich sinf darslarini yanada qiziqarli, mazmunli va samarali tashkil etishga yordam beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tabiiy fanlar mavzularini o'rganish jarayonida klaster yondashuvidan foydalanish ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Klaster metodi mavzularni tizimli, mantiqiy va vizual tarzda o'zlashtirishga imkon berib, talabalar tafakkurining analitik, ijodiy va refleksiv jihatlarini rivojlantiradi. Ushbu yondashuv orqali talabalarda nafaqat fan mazmunini chuqur anglash, balki uni kelajakda boshlang'ich sinf o'quvchilariga metodik jihatdan to'g'ri yetkazish ko'nikmalari ham shakllanadi. Klaster yondashuvi tabiiy fanlarda murakkab tushuncha va jarayonlarni soddalashtirish, fanlararo integratsiyani ta'minlash hamda dars jarayonini interfaol tashkil etishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

Shu munosabat bilan, boshlang'ich ta'lim yo'nalishidagi o'quv reja va dasturlarga klaster metodini tizimli joriy etish, talabalarining metodik tayyorgarligini oshirish maqsadida amaliy mashg'ulotlar ulushini ko'paytirish hamda raqamli klaster vositalaridan foydalanishni kengaytirish tavsiya etiladi. Bundan tashqari, o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida innovatsion pedagogik yondashuvlarga asoslangan maxsus trening va seminarlarni tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Olimov Q. T. Pedagogik texnologiyalar. – T.: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2011.
2. To'xtasinov B. Boshlang'ich ta'limda innovatsion metodlar. – Qarshi: Nasaf, 2020.
3. Jo'rayev R., Mamatqulova D. Tabiatshunoslikni o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2019.
4. Qodirova F., Shodmonova Z. Umumiy pedagogika. – Toshkent: “Sharq” nashriyoti, 2018.
5. O'rinboyeva M. Interfaol metodlar asoslari va ularni dars jarayonida qo'llash. – Toshkent, 2022.
6. Xoliqulova N. Boshlang'ich ta'limda tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi. – Toshkent, 2020.
7. “Boshlang'ich ta'lim” jurnali, turli yillarda chop etilgan sonlar.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta'lim sifatini oshirish va pedagogik innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash to'g'risida”gi qarorlari.
9. O'zbekiston Respublikasi umumiy o'rta ta'lim bo'yicha Davlat ta'lim standarti (DTS).
10. Блук П. Методические основы обучения естествознанию в начальной школе. – Москва: Просвещение, 2018.
11. Виготский Л. Педагогическая психология. – Москва: Айрис-пресс, 2016.
12. Солсо Р. Когнитивная психология. – СПб.: Питер, 2020.
13. Joyce B., Weil M. Models of Teaching. – Boston: Allyn and Bacon, 2019.
14. Bruner J. The Process of Education. – Harvard University Press, 2009.
15. Novak J. Learning, Creating, and Using Knowledge: Concept Maps as Facilitative Tools. – Routledge, 2010.
16. Ausubel D. Educational Psychology: A Cognitive View. – Holt, Rinehart & Winston, 2000.
17. www.ziyonet.uz – O'zbekiston ta'lim portali.
18. www.eduportal.uz – Boshlang'ich ta'lim bo'yicha o'quv-uslubiy resurslar.
19. www.sciencedirect.com – Tabiiy fanlar va ta'lim bo'yicha ilmiy maqolalar.
20. www.researchgate.net – Ta'lim metodlari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.